



**ZAMONAVIY PEDAGOG IMIJIDA MILLIY QADRYATLARGA TAYANGAN
HOLDA ETIKA-ESTETIKA QOIDALARINI AKS ETTIRISH**

Andijon Davlat Pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedra dotsenti
B.Sh.Marasulov ilmiy raxbar.
Egamova Gulira'no Baxromovna
sirtqi 2-kurs talabasi
Farg'ona viloyati Furqat tumani
3-umumiy o'rta ta'lim maktabi kadrlar bo'yicha menejer

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15225361>

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali zamonaviy pedagog imijida milliy an'alarimiz va qadryatlarimizga tayangan holda ish olib borishi, go'zallik va nafosat haqida fikr yuritimiz. O'qituvchining imijiga avvalo uning muomalasi, nutq madaniyati, tashqi ko'rinishi va kiyinish madaniyati kiradi. Har bir o'qituvchi va pedagog degan nomga ega bo'lgan shaxs shunday inson bo'lishi kerakki, o'zi ta'lim-tarbiya berayotgan yosh avlodni har tomonlama tushuna bilishi lozim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Tashqi qiyofa, o'zini namoyon qila olish, kiyinish madaniyati, imij, muammolar.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan pedagog-xodimlarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari, turli xil zo'ravonlik va kamsituvchi harakatlarga yo'l qo'ymasliklari uchun 2024-yil 1-fevralda “Pedagogning maqomi to'g'risida”gi Qonuni qabul qilindi. Qonun bilan pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari mehnatga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi. Xalqimizning eng buyuk milliy qadryatlarimizdan biri bu faqatgina o'zining farzandlarinigina emas, butun o'zbek xalqi farzandlarini hamda farzand atalmish buyuk ne'mat bo'lgan yer yuzidagi barcha farzandlarga mehr berish, asrab-avaylash, ularni ehtiyotlab tarbiyalash an'anaga aylanib avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qadryatlarimiz hisoblanadi.

O'qituvchi pedagog degan nomga ega bo'lgan kishi bundan faxrlanishi, unga buyuk bir davlat kelajagi bo'lmish o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda masuliyat bilan yondashishi zarur. O'qituvchining yana bir eng katta yutug'i uning muomalasidir. U ta'lim-tarbiya berayotgan har bir bolaga (o'quvchiga) chiroyli so'zlay bilishi, ehtiyotkorlik bilan muomala qilishi, bolalarni sevishi, ular oldida o'zini namunali tuta bilishi kerak.

Kishilarning o'rtasidagi munosabatlarda ko'pgina muammolar o'ylamasdan ehtiyotsizlik bilan aytilgan qo'pol so'zdan kelib chiqadi. Chiroyli so'z esa yaxshi muomala mehr-oqibat kalitidir. Pedagog degan nomga ega bo'lgan har bir inson har tomonlama namunali va mukammal shaxs bo'la olishi lozim. Oilada, mahallada, butun jamiyat oldida o'zining xulq-atvori, yurish-turishi, muomalasi va xattoki tashqi qiyofasi ham muhimdir. Tashqi qiyofa orqali bolalarning qiziqishlarini orttirgan holda, o'zini namoyon qila olish, o'ziga og'dira olish va e'tiborni qarata olish ish jarayonini samaradorligini oshiradi. O'qituvchining kiyinish madaniyati zamon bilan hamnafaslida o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda va dazmollangan, bejirim kiyinishi, o'ta tor yoki o'ta keng bichimda bo'lmasligi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (turli xil taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi talab etiladi. Bu pedagogning namunaviy etika qoidalari hisoblanadi. Shular bilan bir qatorda o'qituvchining pedagogik texnikasi tizimida mimik va pantomimik ifodalari ham muhim o'rin tutadi. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki kinoyali tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini ta'sirchan, qiziqarli, samarali va mazmunli o'tish uchun puxta zamin tayyorlab beradi.



Estetika (nafosat) sezgisi – pedagogik mahoratning muhim bo‘lagidir. Estetika juda keng tushuncha bo‘lib bu bo‘lajak pedagogning zamon bilan hamnafaslikda milliy qadryatlarga tayangan holda mehnat faoliyatini olib borishda juda muhimdir. Har bir pedagog ta’lim-tarbiya berish jarayonida o‘zining tashqi ko‘rinishiga, estetik madaniyatiga va o‘z imidjiga ega bo‘lishi kerak.

Imij – bu aniq bir insonga bo‘lgan munosabatda insonlar tafakkurida yuzaga keladigan tashkilot yoki boshqa ijtimoiy ob‘yekt qiyofasi hisoblanadi. Pedagogik imij - pedagogning ma’naviy-axloqiy qiyofasi bilan tashqi ko‘rinishi o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik va mutanosiblikdir. Zamonaviy pedagog imiji deganda kelajak yosh avlodga ta’lim bilan birgalikda tarbiyani ham milliy qadryatlarga tayangan holda teng olib borish, odob-axloq madaniyatini, muomala va muloqot qobiliyatini o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantira olishi, turmushdagi go‘zallikni ko‘ra bilish qobiliyatini shakllantira olishlari lozim. Faqat darslikdagi materialni bayon etuvchi, quruq, his-hayajonsiz, axborot berishdan iborat bo‘lgan darslarning samarasi kam bo‘lishini isbot etishning xojati bo‘lmasa kerak. Shuning uchun o‘qituvchining o‘z his-hayajonini ifoda eta bilishi, uni o‘quvchilar tomonidan sezilishi ularning darsga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi.

XULOSA. Pedagog o‘z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o‘z qadr-qimmatini to‘la baholay bilishi zarur. Doimiy ravishda o‘z-o‘zini shaxsiy va kasbiy rivojlantirib borish, o‘sib kelayotgan yosh avlodga o‘z mehrini, his-tuyg‘ularini har lahzada o‘quvchilar ichki dunyosi bilan bog‘lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. F.X.Sirojiddinova. “Mehnat faoliyatini samaradorligini ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik omillar.” Andijon nashryoti. 2024. 22-186-b.
2. E.Umarov. “Estetika.” T.: O‘zbekiston nashryoti. 1995.
3. To‘xtaxodjayeveva M. “Pedagogika.” – T.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati. 2010.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevralda “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ-901-sonli Qonuni.